NAZAR ESHONQULNING "TOBUT SHAHAR" HIKOYASIDA FONETIK HODISALAR TAHLILI

Hayitmamatova Munavvara
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning "Tobut shahar" hikoyasida uchraydigan fonetik hodisalar tahlil qilinadi. Asardagi tovushlarning o‘zgarishi, qisqarishi misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Ushbu fonetik vositalar qahramonlar nutqini jonlantirish, ularning ruhiy holatini ifodalash va badiiy muhitni yanada real tasvirlashda muhim rol o‘ynashi yoritiladi. Shuningdek, maqolada fonetik hodisalarning asarning umumiy ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni ham izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *fonetik hodisalar, nutq, tovush, tilshunoslik, badiiy vazifa, adabiyotshunoslik, kombinator, morfema.*

Аннотация: *В данной статье анализируются фонетические явления, встречающиеся в рассказе Назара Эшонкула «Тобут Шахар». Изменения и редукция звуков в произведении рассматриваются на примерах. Подчеркивается, что эти фонетические средства играют важную роль в оживлении речи персонажей, выражении их душевного состояния и более реалистичном изображении художественной среды. В статье также объясняется роль фонетических явлений в усилении общего воздействия апроизведения.*

Ключевые слова: *фонетические явления, речь, звук, лингвистика, художественная задача, литературоведение,комбинатор, морфема.*

Abstract: *This article analyzes the phonetic phenomena found in the story "Tobut Shahar" by Nazar Eshonkul. The changes and reductions of sounds in the work are examined on the basis of examples. It is highlighted that these phonetic devices play an important role in enlivening the speech of the characters, expressing their mental state, and depicting the artistic environment more realistically. The article also explains the role of phonetic phenomena in increasing the overall impact of the work.*

Keywords: *phonetic phenomena, speech, sound, linguistics, artistic task, literary studies, combinator, morpheme.*

Tilimizda aks etuvchi har qanday birliklar, avvalo, tovushlar orqali hosil bo‘ladi. Og‘zaki va yozma nutqimizdagi tilimizning barcha go‘zalliklari fonema hamda tovushlar yordamida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon tilshunoslikning bevosita adabiyotshunoslikka ta'sirini ko‘rsatadi, zero "Adabiyot—so‘z sa'nati". Bugungi davr o‘zbek adabiyoti uchun yangilik olib kirgan ijodkarlardan biri Nazar Eshonquldir. Yozuvchining "Tobut shahar" hikoyasida nafaqat mazmun, balki til vositalari, xususan, fonetik hodisalar ham muhim badiiy vazifani bajaradi.

Fonetik hodisalar – nutq oqimida so‘z yoki morfemalar tarkibida yuz beradigan turli fonetik o‘zgarishlar.Bunday o‘zgarishlarning yuzaga kelishida kombinator, pozitsion yoki aralash (kombinator- pozitsion) va boshqa omillar ishtirok etadi [1:122].

Assimilatsiya - bir xil kategoriyadagi tovushlarning (mas, undosh bilan undoshning) so‘z tarkibida o‘zaro moslashuvi. O‘zbek tilida o‘zak bilan affiksdagi unlilar assimilatsiyasi ham uchraydi. Assimilatsiyaning bu turi singarmonizm (unlilar uyg‘unlashuvi) deb ham nomlanadi. Bunda unlilarning uyg‘unlashuvi lab garmoniyasi va til garmoniyasi (lingval garmoniya) shaklida namoyon bo‘ladi. Til garmoniyasida o‘zak bilan qo‘shimcha (affiks morfema) tarkibidagi unlilar tilning gorizontal harakatiga (qator belgisiga) ko‘ra moslashadi.Masalan: keldi(o‘zakdagi-"e" old qator unli bo‘lgani uchun, qo‘shimchadagi "i" unlisi ham old qatordir); qoldi(o‘zakdagi-"o" orqa qator unli bo‘lgani uchun, qo‘shimchadagi "i" unlisi ham orqa qatordir(qɔldь kabi).Lab garmoniyasi ko‘proq shevalarda uchraydi: o‘g‘lim (adabiy tilda)- ulum (qipchoq lahjasi shevalarida), ko‘zim (adabiy tilda)- ko‘zum (kөzym: qipchoq lahjasi shevalarida). Bunda o‘zak va qo‘shimchalardagi unlilarning lablanish jihatdan moslashuvi sodir bo‘lgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida assimilatsiyaning bu turi deyarli uchramaydi.Assimilatsiyada fonemaning kombinator ottenkasi yuzaga keladi (o‘zgarish tovushlarning bir-biriga ta‘siri natijasida bo‘lganligi uchun) [1:123].

Dissimilatsiya - so‘z tarkibidagi bir xil (yoki o‘xshash) tovushlardan

birining boshqa tovushga ko‘chishi: birorta>bironta (ror>ron), kissa>kista (ss>st) kabi. Bu hodisani assimilatsiyaning aksi deyish mumkin [1:124].

Eliziya — unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasi. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi so‘z oxiridagi unli tushib qoladi: voza oladi — vozaladi, bora oladi — boroladi, qora ot-qorot: b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so‘zning bosh unlisi tushib qoladi: borar ekan — borarkan, borar emish-borarmish, yozgan ekan — yozgankan kabi [2:68].

Sandxi hodisasi - analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir

bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlar. Masalan: ishlar edi>ishlardi,borgan emish>borganmish kabi. Bu hodisa o‘z tabiatiga ko‘ra eliziyaga juda yaqin turadi [1:125].

Sinkopa – so‘z o‘rtasidagi tovushning tushib qolishi. Bu hodisa reduksiyaning davomi sifatida ko‘proq uchraydi-o‘zak morfemaga affiks morfema qo‘shilganda, urg‘u oxirgi bo‘g‘inga ko‘chib, o‘zakdagi unli kuchsizlanadi va tushib qoladi: burun>burnim, burning,burni; o‘g‘il>o‘g‘lim, o‘g‘ling, o‘g‘li kabi. So‘z o‘rtasidagi unlining tushib qolishi ba‘zan tarixiy (diaxron) planda sodir bo‘lgan bo‘lib, hozir sezilmas holatga kelib qolgan bo‘lishi mumkin: olcha<olicha, kelyapti<kelayapti kabi. O‘zbek tilida undosh tovushlar sinkopasi ham uchraydi: pastqam>pasqam, pastda>pasda kabi. Ularning ba‘zi turlari tarixiy plandagina qaralishi mumkin: erdi>edi kabi [1:127].

Spirantizatsiya - ayrim portlovchi undoshlarning ikki unli orasida (intervokal pozitsiyada) sirg‘aluvchi undoshga o‘tishi: bora ber>boraver (b>v), kabob>kavob (b>v), po‘stloq>po‘stlog‘i (q>g‘), taroq> tarog‘i (q>g‘) kabi. Bu hodisada pozitsion omil (intervokal holat) bilan birga kombinator omil (unlilarning undoshga ta‘siri) ham ishtirok etgan [1:129].

Geminatsiya - ikkita bir xil undoshning so‘z tarkibida qavatlanishi: muddat, izzat kabi. Bunday qavatlanish ma‘lum uslubiy maqsadlarda yuzaga keltirilishi ham mumkin: Masalan, mazá (bitta "z", bunda uslubiy bo‘yoq yo‘q.)- mázza (ikkita "z"). So‘zning bu shaklida ma‘no kuchaytirilgan). Misol uchun uchalási>úchchalasi, rosá>róssa, judá>júdda kabi. Geminatsiya hodisasi so‘z yasalishida ham uchraydi: achimoq (fe‘l)- achchiq (sifat), isimoq (fe‘l)- issiq (sifat), qotmoq (fe‘l)- qattiq (sifat) kabi. Sifatlarning kuchaytiruv (intensiv) formalarida ham geminatsiya hodisasi uchraydi: oq>oppoq, sog‘<soppasog‘ kabi [1:129].

Natijalar:

Sandxi hodisasi, spirintizatsiya:

…hali bironta loyihamni qabul **qilishmagandi**, kun **uzog'i** ishimizga hech bir bog'liq bo'lmagan chizmalar bilan mashg'ul **bo'lardik**…

“…qabul qilishmagandi… bo‘lardik…”

Bu o‘rinda sandxi hodisasi nutqni ixchamlashtirish va tezlashtirish vazifasini bajaradi. Fe’llarning qisqargan shakllari qahramon nutqini og‘zaki uslubga yaqinlashtirib, tabiiylikni ta’minlaydi. Spirantizatsiya esa talaffuzni yumshatib, nutqning ravonligini oshiradi. Natijada matn jonli va dinamik tus oladi.

Dissimilatsiya, **sandxi hodisasi**:

…bu erda bizning sohaga bog'liq **biron** narsani **ko'rmagandim…**

“…biron narsani ko‘rmagandim…”

Dissimilatsiya bu yerda talaffuzni soddalashtirish va qulaylashtirish vazifasini bajaradi. “Biron” shakli nutqni ortiqcha murakkablikdan xalos qiladi. Sandxi esa gapni ixcham qilib, qahramonning tabiiy, sodda nutqini ifodalaydi.

Spirantizatsiya:

Matbuotda o'qigan bo'lsalaringiz kerak, biz haqimizda rosa yozishdi, - dedi bizni kutib olgan shahar **boshlig'i**. - Odamlarimiz to'q va farovon **yashayotgandi.**

“…boshlig‘i… yashayotgandi…”

Spirantizatsiya undoshlarning yumshashi orqali nutqni silliq va ohangdor qiladi. Bu esa matnda rasmiy nutq bilan birga jonli og‘zaki nutq elementlarini uyg‘unlashtiradi. Natijada qahramon nutqi real va ishonarli chiqadi.

Spirantizatsiya, sandxi hodisasi:

U bizga o'xshash tekshirish guruhlarini **ko'raverib**, toza pishib ketgan edi, chog'i, o'zini juda erkin tutar va erkin **gaplashardi**, shuningdek, professorga o'xshash **dimog'i** baland olimlarni ham ko'p ko'rgan, gaplarida xufyona osilgan qilich kabi «jo'jani kuzda sanaysiz», degan pisanda bor edi.

ko‘raverib… gaplashardi… dimog‘i…”

Bu o‘rinda sandxi nutqni ixchamlashtirib, tezkorlik beradi, spirantizatsiya esa talaffuzni yumshatadi. Ikkalasi birgalikda qahramonning erkin, bemalol va hatto biroz kinoyali nutq ohangini yuzaga keltiradi. Bu esa uning xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Progressiv assimilatsiya, geminatsiya, sandxi hodisasi, eliziya:

Professor indamay boshini **tuynukka** burdi - u erdan pastda yastanib yotgan **qip-qizil** sahro **ko'rinardi** va biz bir paytlar qush uchib **o'tolmas** sahro ustidan qushday uchib o'tayotganimizni sezib **turardik.**

qip-qizil sahro…”

Bu birikmada geminatsiya (“qip-qizil”) rangni kuchaytirib, tasvirni yanada ta’sirchan qiladi. Assimilatsiya tovush uyg‘unligini ta’minlaydi, eliziya va sandxi esa nutqni ixcham va ravon qiladi. Natijada sahro tasviri kuchli badiiy effekt bilan ifodalanadi.

Spirantizatsiya:

…ko'zlari botib bo'lgan quyoshning **shafag'iday** qizarib ketgan, chuqur lahmga o'xshash **qorachig'larida** yillar davomida zanglagan qilich kabi bir telba istehzo qotib qolgan…

“…shafag‘iday qizarib ketgan…”

Bu o‘rinda spirantizatsiya tasvirning poetikligini oshiradi. Tovushlarning yumshashi orqali matnga hissiylik va obrazlilik qo‘shiladi. Natijada tasvir nafaqat ko‘rinadi, balki o‘quvchi tomonidan his ham qilinadi.

Fonetik hodisalar	**Fonetik hodisaga uchragan so‘z**
Sandxi hodisasi	Qilishmagan edi>qilishmagandi
Spirantizatsiya	Uzoq>uzog‘i
Sandxi hodisasi	Bo’lar edik>bo’lardik
Sandxi hodisasi	Yurar edim>yurardim
dissimilatsiya	Biror>biron (ror-ron)
Sandxi hodisasi	Ko‘rmagan edim>ko‘rmagandim
Spirantizatsiya	Boshliq>boshlig‘i
Sandxi hodisasi	Yashayotgan edi>yashayotgandi
Sandxi hodisasi	Kelishar edi>kelishardi
Sinkopa	Shahar>shahri
Spirantizatsiya	Ko‘ra berib>ko‘raverib
Sandxi hodisasi	Gaplashar edi>gaplashardi
Spirantizatsiya	Dimoq>dimog‘i
Progressiv assimilatsiya	Tuynuk+ga>tuynukka
Geminatsiya	Qizil>qip-qizil
Sandxi hodisasi	Ko‘rinar edi>ko‘rinardi
Eliziya	O‘ta olmas>o‘tolmas
Sandxi hodisasi	Turar edik>turardik
Assimilatsiya	Chiq+gach>chiqqach
Epiteza	Balki>balkim
Spirantizatsiya	Tomoq+i>tomog‘i
Spirantizatsiya	Boshliq+i>boshlig‘i
Spirantizatsiya	Dimoq+i>dimog‘i
Sandxi hodisasi	Qo‘yishar edi>qo‘yishardi

Sandxi hodisasi	Yotar edi>yotardi
Sandxi hodisasi	Yurar edi>yurardi
Geminatsiya	Qora>qop-qora
Sandxi hodisasi	O‘tirar edi>o‘tirardi
Spirantizatsiya	Shafaq+i>shafag‘i
Spirantizatsiya	Qorachiq+i>qorachig‘i
Eliziya	Yorita olmagan>yoritolmagan
Eliziya	Yecha olmay>yecholmay
Eliziya	Bera olmay>berolmay
Sandxi hodisasi	O‘xshar edi>o‘xshardi
Sandxi hodisasi	Ajablanmas edik>ajablanmasdik
Sandxi hodisasi	Qolar edik>qolardik
Sandxi hodisasi	Ming‘illar edi>ming‘illardi
Eliziya	Qola olmasligi>qololmasligi
Sinkopa	Burun>burni

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning “Tobut shahar” hikoyasida fonetik hodisalar muhim badiiy vosita sifatida faol qo‘llanilgan. Asarda uchraydigan sandxi, sinkopa, dissimilatsiya, spirantizatsiya kabi fonetik o‘zgarishlar nafaqat nutqni ixcham va tabiiy shaklga keltiradi, balki qahramonlar nutqining jonli, real va ishonarli chiqishini ta’minlaydi. Ayniqsa, sandxi hodisasi orqali gaplarning soddalashuvi va tezlashuvi kuzatilib, bu holat og‘zaki nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.Shuningdek, fonetik hodisalar qahramonlarning ruhiy holatini ifodalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tovushlarning tushishi, almashishi yoki yumshashi orqali matnda ma’lum darajada hissiylik, keskinlik yoki tabiiylik yaratiladi. Bu esa yozuvchining til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanganini ko‘rsatadi.Umuman olganda, “Tobut shahar” hikoyasida fonetik hodisalar faqat til hodisasi sifatida emas, balki badiiy-estetik vazifani bajaruvchi muhim unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular asarning umumiy ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchiga yanada jonli va ta’sirli badiiy muhitni his etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Dav, 2013. –122 b.
2. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: 2009. –67 b.
3. Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o‘rni. O‘zbek tili va adabiyoti. –T.: Fan, 2009,№ 4.
4. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. –T.: Fan, 1987. –6 b.
5. Eshonqul N. Saylanma 1. Hikoyalar. –T.: Akadem, 2022. –179 b.